

“O‘zbekko‘mir” aksiyadorlik jamiyati
Kuzatuv kengashi majlisining
4/2025 - sonli bayonnomasi

Majlis o‘tkazilgan sana:

« 29 » Avrust 2025 yil

Majlis o‘tkazilgan joy:

Toshkent shahar- 11, Markaz-14, 27 uy.

Majlis o‘tkazilgan vaqt:

soat 15-00

Majlisni o‘tkazish shakli:

So‘rovnoma yo‘li bilan

Kuzatuv kengashi majlisi O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 78-moddasiga muvofiq, Kuzatuv kengash a‘zolari tashabbusi bilan chaqirildi.

Kuzatuv kengashi a‘zolari majlis bayonnomasini imzolash orqali kun tartibidagi masalalar bo‘yicha ovoz berishadi.

Majlisda ishtirok etishi lozim bo‘lgan kuzatuv kengashi a‘zolari: Islamov Bobir Farxadovich, Samandarov Tal‘at Yo‘ldoshevich, Xalimov Adhambek Jamoliddin o‘g‘li, Pulatov Nodirbek G‘ulomovich, Bart Lucarelli (mustaqil a‘zo), Nazarov Nodir Qaxarovich, Upushev Yerlan Yelemesovich, Ayxodjaev Rustam Irkinovich, Raxmatov Alisher Xamzaevich.

Mazkur majlisda 9 ta Kuzatuv kengashi a‘zolaridan 7 tasi so‘rovnoma orqali qatnashdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 78-moddasida belgilangan Kuzatuv kengashi majlisini o‘tkazish kvorumi (77,7%) mavjud.

KUN TARTIBI:

1. “O‘zbekko‘mir” AJda 2025-yilda energiya samaradorligiga erishish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasini tasdiqlash.
2. “O‘zbekko‘mir” AJ bosh direktorining 2025-yil 1-yarim yillik hisobotini ko‘rib chiqish.
3. “O‘zbekko‘mir” AJda Inovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi nozomni tasdiqlash.
4. “O‘zbekko‘mir” AJni 2025-yilda moliyaviy sog‘lomlashtirishga qaratilgan “Yo‘l xarita” dasturini tasdiqlash.
5. Jamiyat Ijroiya organ a‘zolariga to‘lanadigan oylik ish haqining eng yuqori miqdorni belgilash masalasini ko‘rib chiqish.
6. “O‘zbekko‘mir” AJning raqamli transformatsiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish konsepsiyasini ko‘rib chiqish.
7. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 21-iyundagi 08/29-40/1224-sonli topshirig‘ini ko‘rib chiqish.

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-iyundagi "2025-yilda yirik korxonalarda yoqilg'i-energetika resurslarini tejash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 348-son qarori 2-bandiga asosan, 2025-yilda bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan yoqilg'i energetika resurslarini tejash bo'yicha chora-tadbirlar rejasini aksiyadorlik jamiyatlarining Kuzatuv kengash yig'ilishlarida ko'rib chiqish uchun kiritish yuklatilgan.

Yuqoridagi topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zbekko'mir" AJda energiya samaradorligiga erishish bo'yicha 2025-yilda elektr energiyasi va tabiiy gazni tejashga qaratilgan tashkiliy-texnik chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va yig'ilish ishtirokchilariga ko'rib chiqish uchun kiritildi (*ilova qilinadi*).

Muhokamadan so'ng ushbu masala tasdiqlash uchun ovozga qo'yildi va bir ovozdan maqullandi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha qabul qilingan qaror:

1. "O'zbekko'mir" AJda energiya samaradorligiga erishish bo'yicha 2025-yilda elektr energiyasi va tabiiy gazni tejashga qaratilgan tashkiliy-texnik chora-tadbirlar rejasi va yirik sanoat korxonalarida bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan energiya resurslari miqdori bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha:

"O'zbekko'mir" AJ bosh direktorining 2025-yil 1-yarim yillik hisoboti ko'rib chiqish uchun taqdim etildi.

I. Kon yuzasini ochish ishlari.

Kon yuzasini ochish ishlari 15,8 mln kub metrga bajarilib, rejaga nisbatan 74,1 foizni tashkil etdi. Xususan, "Angren ko'mir" konida 13,5 mln kub metr (73,1 %), "Apartak ko'mir" konida 2 304,9 ming kub metr (80,5 %), kon ochish ishlari bajarilgan. *2024 yilning mos davriga nisbatan 4,3 mln kub metrga (137,6 %) ko'p.*

Kon yuzasini ochish reja ko'rsatkichlarining bajarilmasligiga quyidagi omillar sabab bo'lgan:

- Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-yanvardagi 16-sonli majlis Bayonida tasdiqlangan marshrut bo'yicha 2025-yil yanvar-iyun oylarida ko'mir uchun 387,8 mlrd. so'm to'lanishi belgilangan, ammo "O'zbekko'mir" AJ hisobiga 235,3 mlrd. so'm tushum bo'lgan (-152,5 mlrd. so'm). Shu sababli jamiyatda moliyaviy mablag' taqchilligi yuzaga kelgan:

- zarur ehtiyot qismlar xarid qilinmagan hamda tog'-kon texnikalari (avtosamosval, buldozer, yuklagichlar)ning foydali ish koeffitsienti o'rtacha 0,56 ni tashkil etgan (*50 foizidan ortig'i jismonan eskirgan*); *Ko'mir qazib olishda qatnashuvchi jami 96 ta avtosamosvaldan (MAN, HOWO, BelAZ, Komatsu) 67 tasi (69,8%), 25 ta buldozerdan 14 tasi (56,0%) ish holatida, qolganlarini ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar xarid qilish zarur.*

-yoqilg'i-moylash materiallari bilan o'z vaqtida ta'minlanmagan, tovar yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatuvchilar oldida kreditor qarzdorlik ortgan hamda davlat kafolati ostida jalb qilingan kredit mablag'lari qaytarilishi kechiktirilgan.

II. Ko'mir qazib olish.

Yanvar-iyun oylarida jami 2,8 mln tonna ko'mir qazib olindi (*rejaga nisbatan 97,8 %*), *o'sish sur'ati 116,7%*, shundan, "Angren ko'mir" konida 2,5 mln tonna (*101,4 %*), "Apartak ko'mir" konida 255,3 ming tonna (*72,5 %*), "Yer osti usluda qazib olish ishlari" filialida 30,2 ming tonna (*103,5 %*) qazib olingan.

III. Ko'mir yetkazib berish.

Iste'molchilarga ko'mir yetkazib berish rejasi 3,1 mln tonna bo'lib, amalda 2,8 mln tonna (*88,8 %*) yuklab yuborilgan.

Issiqlik elektr stansiyalariga jami 1,9 mln tonna (*97,2 %*), budget tashkilotlariga 228,1 ming tonna, aholi ehtiyojlari uchun 153,4 ming tonna (*103,5 %*) mahalliy ko'mir yetkazib berilgan.

Birja savdolari orqali 512,3 ming tonna ko'mir sotilgan.

IV. Moliyaviy ko'rsatkichlari

2025 1-yarim yillikda korxonaning jami daromadlari 824 120,5 mln. so'm bo'lib rejaga nisbatan 93,4 foizga (881 750,4 mln. so'm), o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 110,7 foizni tashkil etdi. (744 646,3 mln. so'm).

Daromadlar yoyilmasi quyidagilardan iborat:

Ko'mir mahsuloti sotishdan daromad 768 749,3 (shundan maxsus ustama 128 550 mln.so'm) rejaga nisbatan 89,7 % *bajarilgan. "Yangi Angren IES" AJda ta'mirlash ishlari olib borganligi sabab ko'mir sotish rejasi bajarilmagan.*

- Kaolin mahsuloti sotishdan daromad 10 902,1 mln.so'm – rejaga nisbatan 51,2%. Kaolin maxsulotiga talab yuqligi uchun reja bajarilmagan.

- Boshqa mahsuloti sotishdan daromad 1 611,6 mln.so'm – rejaga nisbatan 43,8%. Boshqa tashkilotlar bilan shartnomalar tuzilmaganligi sababli reja bajarilmagan.

- Boshqa daromadlar 23 028,9 mln.so'm

- Moliyaviy faoliyatning daromadlari 19 828,6 mln.so'm

- Harajatlar jami 817 781,0 mln. so'mni tashkil qildi, shundan:

Sotilgan mahsulotlarning tannarxi 606 386,4 mln.so'mni, rejaga nisbatan 86,0 foizni tashkil etdi, o'sish sur'ati 115,1 %. (*2024 yil I-yarim yillik – 526 871,0 mln.so'm*). Mablag'lar taqchilligi sababli zarur ehtiyot qismlar to'liq hajmlarda xarid qilinmagan hamda yoqilg'i-moylash materiallari bilan o'z vaqtida ta'minlanmagan, shunig uchun sotilgan mahsulotlarini tannarxi kamaygan.

Davr harajatlari 135 608,2 mln.so'mni rejaga nisbatan 114,8 foiz (118 114,3 mln. so'm) tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15 231,7 mln.so'm yoki 11,2 foizga kam (*2024 yil I-yarim yillik – 150 839,9 mln.so'm*) shu jumladan:

- mahsulot sotish harajatlari – 5 901,4 mln.so'm; rejaga nisbatan 159,7 foizni tashkil etdi, 2,2 mln.so'm rejaga nisbatan ortiqcha harajatga yo'l qo'yilgan (*tovarlarni vagonlarga kam yuklanishi va bo'sh turgan vagonlar uchun jarimalar hisobiga shakllangan*).

- ma'muriy harajatlari – 35 656,3 mln.so'm;

- boshqa operatsion xarajatlari – 94 050,4 mln.so‘m; rejaga nisbatan 119,6 foizni tashkil etdi, 15,3 mln.so‘m rejaga nisbatan ortiqcha sarf harajat qilingan (7,0 mln.so‘m sud harajatlari, jarimalar va konunchiligni buzganligi uchun ajrimlar, bu harajatlar rejalashtirilmagan va ko‘zda tutilmagan. 8,3 mln.so‘m rag‘batlantiruvchi va mukofot to‘lovlari jamoa shartnomasi asosida amalga oshirilgan (ayollarga 8 mart bayramiga, kasb bayrami va pensiyaga chiqanda bir martalik nafaqa mukofotlari hisobiga shakllangan).

Moliyaviy faoliyatning harajatlari – 75 786,4 mln.so‘mni, shundan valyuta kursidan harajatlari 27 605,9 mln.so‘m tashkil etdi.

Jamiyat 2025 yil I-yarim yillikda 720,6 mln. so‘m foyda bilan yakunladi.

Hisobot davrida ishlagan xodimlarning o‘rtacha soni 5 634 kishi bo‘lib ularning ish haqi fondi 228 872,8 mln so‘m miqdorida tashkil qilgan. Natijada korxona xodimlarining o‘rtacha ish haqi 6 770 583,0 so‘mni tashkil qilgan.

Mehnat unumdorligi 2025 yil I-yarim yillikda har bir xodimga qazib chiqarilgan ko‘mir miqdori 491,8 tonnani tashkil etdi, 2024 yil I-yarim yillikga nisbatan 15,7% oshgan (424,9 tonna).

Muhokamadan so‘ng masala ovozga qo‘yildi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo‘yicha qabul qilingan qaror:

1.“O‘zbekko‘mir” AJ bosh direktorining 2025-yil 1-yarim yillik hisoboti maqullansin va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Inovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-165-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, “O‘zbekko‘mir” AJda inovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish bo‘yicha Jamiyat Kuzatuv kengashining 2022-yil 4-noyabrdagi yig‘ilish qarori hamda “O‘zbekko‘mir” AJning 2022-yil 10-noyabrdagi 444-sonli buyrug‘i qabul qilingan.

Yuqoridagi qarorlar ijrosini ta‘minlash maqsadida Jamiyatning “Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risida”gi nizomini ilovaga muvofiq tasdiqlanishi lozim (nizom ilova qilinadi).

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi uchinchi masala bo‘yicha qabul qilingan qaror:

1. “O‘zbekko‘mir” AJ Inovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi to‘g‘risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Kun tartibidagi to‘rtinchi masala bo‘yicha:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2025-yil 1-avustdagi 02/09-1-20/2371-sonli xatida davlat ishtirokidagi korxonalarni 2025-yilda

moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan "yo'l xarita" dasturini ishlab chiqish, uni Jamiyatning boshqaruv organi yig'ilishida tasdiqlash, prognoz ko'rsatkichlari va choraklik ijrosini monitoring qilgan holda Davlat aktivlari agentligining kpi.davaktiv.uz saytidagi "sog'lomlashtirish" moduliga kiritilishni ta'minlash so'ralgan.

Topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida Jamiyatning 2025-yilda moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan "yo'l xarita" dasturi ishlab chiqildi va ko'rib chiqish uchun taqdim etildi ("yo'l xaritasi" dasturi ilova qilinadi).

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha qabul qilingan qaror:

1. Jamiyatning 2025-yilda moliyaviy sog'lomlashtirishga qaratilgan "yo'l xarita" dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Jamiyat Ijroiya organi:

- tasdiqlangan "yo'l xarita" dasturini Davlat aktivlarini boshqarish agentligining kpi.davaktiv.uz saytiga joylashtirish va belgilangan vazifalar ijrosi bo'yicha har chorakda agentlikga ma'lumot kiritib borish ishlarini amalga oshirsin.

Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 31-iyuldagi 07/29-40/1570-sonli xatida Jamiyatning Ijroiya organ a'zolari hamda jalb etilgan yuqori malakali chet el mutaxassislarining oylik ish haqi masalasini Kuzatuv kengashida ko'rib chiqish va so'ng aksiyadorlar umumiy yig'ilishida tasdiqlash masalasini ko'rib chiqish so'ralgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 464-sonli Qarorining 2-bandida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 1-avgustdan boshlab davlat ishtirokidagi korxonalpr hamda tijorat banklari raislari va rais o'rinbosarlariga *(alohida shtatlar asosida jalb qilinadigan tajribaga ega chet ellik mutaxassislar uchun to'lovlar Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda belgilanadi)* to'lanadagan oylik ish haqining eng yuqori miqdorlarini *(jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va barcha turdagi mukofotlarni o'z ichiga olgan holda)* ilovaga muvofiq belgilash to'g'risidagi taklifga rozilik berilgan.

Qarorning ilovasiga muvofiq davlat ishtirokidagi korxonalarning boshqaruv a'zolariga to'lanadigan oylik ish haqining eng yuqori miqdorlari belgilangan unga ko'ra "O'zbekko'mir" AJ boshqaruv raisi (bosh direktor)ga MHTEKM-55 baravari, rais o'rinbosarlari (ijroiya organ a'zolari)ga MHTEKM-40 baravari etib belgilangan.

"O'zbekko'mir" AJda alohida shtatlar asosida jalb qilinadigan tajribaga ega chet ellik mutaxassislar uchun to'lovlar Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda belgilanishini inobatga olgan holda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 12-maydagi 26/34-44-sonli topshirig'i bilan Jamiyatda alohida shtatlar asosida jalb qilingan tajribaga ega quyidagi chet ellik mutaxassislarga:

Kuznetsov Vladimir Vladimirovichga MHTEKMning 128-baravari;

Korchagin Aleksandr Mixaylovichga MHTEKMning 95-baravari;

Akimov Yuriy Valentinovichga MHTEKMning 55-baravari miqdorida oylik ish haqi to'lashga rozilik berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-sonli Qonunining 12-bandini hamda Jamiyat ustavining 10.6-bandlariga muvofiq Jamiyat Ijroiya organiga to'lanadigan haq va ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash hamda Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, shuningdek ularga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalalarni Kuzatuv kengash tomonidan maqullangandan so'ng aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga kiritish belgilangan.

Jamiyat Kuzatuv kengash a'zolari tomonidan Ijroiya organ a'zolariga to'lanadigan oylik ish haqining eng ko'p miqdorlarini maqullash va uni tasdiqlash masalasini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun kiritish taklif etildi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha qabul qilingan qaror:

1. Jamiyat Ijroiya organ a'zolariga to'lanadigan oylik ish haqining eng ko'p miqdorlarini Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-iyuldagi 464-sonli Qarori ilovasida keltirilgan miqdorda maqullansin va uni tasdiqlash masalasini aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilsin.

2. "O'zbekko'mir" AJda alohida shtatlar asosida jalb qilinadigan tajribaga ega chet ellik mutaxassislar uchun to'lovlar Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 12-maydagi 26/34-44-sonli topshirig'ida belgilangan miqdorda maqullansin uni tasdiqlash masalasini aksiyadorlar umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritilsin.

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha:

"O'zbekko'mir" AJning raqamli transformatsiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni, hamda O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida", "Telekommunikatsiyalar to'g'risida", "Elektron raqamli imzo to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonunlari asosida, ko'mir sanoatini rivojlanish sur'atlarini oshirish uchun tarmoq korxonalarining rejaviy, hisob va me'yoriy ma'lumotlarini birlashtirgan yagona axborot tizimini tashkil etish maqsadida ishlab chiqilgan.

"O'zbekko'mir" AJning raqamli transformatsiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi Kuzatuv kengash a'zolariga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi (*konsepsiya ilova qilinadi*).

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha qabul qilingan qaror:

1. "O'zbekko'mir" AJning raqamli transformatsiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish konsepsiyasi ilovaga muvofiq maqullansin.

Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 21-iyundagi 08/29-40/1224-sonli topshirig'ida ilova qilingan Bolalar kontentini rivojlantirish markazining 2025-yil 3-iyundagi 025-25-sonli xatida ko'rsatilgan homiylik masalasini tegishli hisob-kitoblar asosida Jamiyat Kuzatuv kengashi yig'ilishida ko'rib chiqish so'ralgan.

O'zbekiston Respublikasining "Homiylik to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasiga ko'ra, ustav fondida davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan xo'jalik jamiyatlarining homiylikka sarflanadigan har yilgi harajatlari o'tgan yilda olingan sof foydaning 3 foizidan oshmasligi kerakligi hamda bu harajatlar ular biznes-rejasining o'tgan hisobot davridagi sof foydaga talluqli qismi ko'rsatkichlari bajarilganda amalga oshirilishi, bundan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollar mustasno etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar yaratish va ularni ommalashtirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-183-sonli Qarorining 7-bandida kontentlarni yaratishni qo'shimcha moliyalashtirish uchun har yili davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan jamiyat biznes-rejalarida mablag'lar nazarda tutilishi hamda ushbu mablag'larning ulushi Markazga ajratilishi va ular o'rtasida shartnomalar tuzish belgilangan. Masala Jamiyat Kuzatuv kengash a'zolari tomonidan ko'rib chiqildi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor - 7 Qarshi - 0 Betaraf - 0

Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha qabul qilingan qaror:

1. "O'zbekko'mir" AJ Kuzatuv kengashi quyidagilarni tavsiya qiladi:

- O'zbekiston Respublikasining "Homiylik to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasi hamda Jamiyat ustavining 9.5-bandiga ko'ra, Jamiyatning homiylik (xayriya), beg'araz yordam ko'rsatishga sarflanadigan har yilgi harajatlari Jamiyat biznes-rejalariga kiritilishi lozim. Bunda:

- harajatlar o'tgan yilda olingan sof foydaning 3 foizidan oshmasligi hamda bu harajatlar Jamiyat biznes-rejasining o'tgan hisobot davridagi sof foydaga taalluqli qismi ko'rsatkichlari bajarilganda amalga oshirilishi lozim.

2. Jamiyatning homiylik (xayriya), beg'araz yordam ko'rsatishga sarflanadigan har yilgi harajatlarini belgilash aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilganligini inbatga olgan holda ushbu masalani Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilsin.

Kuzatuv kengashi raisi:

Islamov B.F.

B. Islam

Kuzatuv kengashi a'zolari:

Samandarov T.Y.

T.Y. Samandarov

Xalimov A.J.

A.J. Xalimov

Pulatov N.G'.

N.G. Pulatov

Nazarov N.K.

N.K. Nazarov

Ayxodjaev R.I.

R.I. Ayxodjaev

Raxmatov A.X.

A.X. Raxmatov